

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI

Nizomiy nomidagi O'zbekiston

Milliy pedagogika universiteti

Magistratura bo'limining 1-kurs talabasi

Sharapova Shahnoza Asqar Qizi

Telefon raqami +998904027277

Ilmiy rahbar: Qodirov Davron Kabilovich

Annotatsiya: Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Musiqa darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabgorligi oshmoqda. Mazkur maqolada musiqa ta'limi darslarida zamonaviy ta'limning o'rni yoritilgan. Musiqa darslarida masofaviy ta'lim, individual ta'lim, ta'lim dasturlarini shakillantirish ko'nikmalari, kamchiliklari hamda amalga oshirilgan natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologik dasturlar bolalarni darslarga qiziqtirish hamda salohiyatini yanada oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, interfaol, ko'nikma, qiziqarli, qulay, imkoniyat, ta'lim tizimi, an'anaviy musiqa.

Роль современного образования на уроках музыкальной культуры

Аннотация: С развитием современных технологий в системе образования происходят значительные изменения. Возрастает потребность в использовании современных педагогических технологий на уроках музыки. В данной статье раскрыта роль современного образования в музыкальном обучении. Рассмотрены дистанционное обучение, индивидуальное обучение, навыки формирования образовательных программ, их недостатки, а также достигнутые результаты. Результаты исследований показывают, что современные технологические программы играют важную роль в повышении интереса детей к урокам и развитии их потенциала.

Ключевые слова: современное образование, интерактивность, навык, интересный, удобный, возможность, система образования, традиционная музыка.

The role of modern education in music culture classes

Annotation: With the development of modern technologies, significant changes are taking place in the education system. The demand for using modern pedagogical technologies in music lessons is increasing. This article highlights the role of modern education in music teaching. It analyzes distance learning, individual learning, skills in developing educational programs, their shortcomings, and achieved results. The research results show that modern technological programs play an important role in increasing students' interest in lessons and enhancing their potential.

Keywords: modern education, interactive, skill, interesting, convenient, opportunity, education system, traditional music.

Kirish: Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim, o'quv muassasalarida keng qo'llanilib talabalarda mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish va ko'nikma hosil qilishni rivojlantirishga yordam berib kelmoqda. Ushbu talim yo'nalishida dars jarayonlarini qiziqarli va qulay o'tkazish maqsadida texnologiyalarning turli javxalaridan, ya'ni mobil ilovalar, qiziqarli filmlar, elektron hamda audio kitoblaridan keng foydalanilmoqda.[1] Aslida zamonaviy ta'lim dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sifatini oshirish, imkoniyatlarni kengaytirish hamda masofaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish maqsadida ishlab chiqilgan. Unda istalgan vaqtda, istalgan joyda o'rganish imkoni mavjud bo'lib an'anaviy ta'lim tizimida o'qish imkoni bo'lmagan o'quvchilarning onlayn ya'ni masofaviy ta'lim olishini ta'minlaydi.[2]

Musika ta'limi va tarbiyasi o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Vatanimizning kelajagi bo'lmish barkamol avlodning tarbiyasi biz uchun juda muhimdir. Shuningdek 21-asrni "Intelektual yoshlar asri" deb nomlanishi bejizga emas. Ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama bilimli va salohiyatli, tanlagan kasbining ustasi bo'lishi uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan.[3] Shuningdek zamonaviy ta'lim tizimidan musiqa darslarida interfaol

darslarni yaratish, eshitish va musiqiy idrokni rivojlantirish, hamda audio va video materiallar bilan ishlash, musiqa nazariyasi va musiqa sanati tarixini qiziqarli tarzda o'rganish, munozaralarda faol ishtirok etish imkoni mavjud bo'lib bir qancha qulayliklarni yaratdi.[4]

Birinchidan, o'quv dasturlari hamda onlayn kurslar ishlab chiqish.

Ikkinchidan, texnik bilim va tajribaga ega bo'lish.

Uchunchidan, o'quvchilar bilan doimiy aloqa va ularning yutuqlarini tahlil qilish.

To'rtinchidan, texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarning musiqiy tushunchalarini yanada rivojlantirish.

Beshinchidan, texnologik jihozlardan foydalanib musiqiy asarlarni tayyorlash va ijro etish bo'yicha treninglar o'tkazib, o'quvchilarni jalb qilish imkonini beruvchi interaktiv darslardan foydalanish.

Oltinchida, onlayn platformalar orqali virtual musiqa asboblardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Shuningdek zamonaviy ta'lim tizimida har doim ham rivojlanish qulay va samarali foyda beradi deb ayta olmaymiz. Masalan musiqa fanini o'qitishda texnologiyalardan foydalanishning quyidagi muammo va kamchiliklariga duch kelamiz.[5]

Birinchidan, o'qituvchi va o'quvchilarni kompyuter savodhonligida rivojlanishning yangi javhalarini o'rganish zaruriyati.

Ikkinchidan, onlayn ta'limda texnologiyalardan foydalanishda talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashdagi qiyinchiliklar.

Uchinchidan, zamonaviy ish va ta'lim doirasida jamoaviy muloqot qilish imkoniyatlarini kamaytirish.

To'rtinchidan, masofaiy ta'lim tizimida ijroni mukammal darajada bayon qilib, fikrlarni bir-biriga yetkazib beraolishdagi muammolar.

Beshinchidan, avangardizm rivojlanib sof va an'anaviy musiqa yo'qolib ketishi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa tarbiyasi shahs sifatida shakillanayotgan bolalarning qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va ahloqiy madaniyatni, musiqiy didn shakillabtirish, musiqiy tasavvurlarni yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlikinsonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirishda muhim ro'l o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar esa musiqa darslarini o'qitish jarayonini yaxshilash uchun katta imkoniyatlarga ega va bir qancha sohalarda yuqori darajalarga erishib rivojlanishni davom ettirib kelmoqda.[6] Ammo ushbu zamonaviy texnologiyalar bartaraf qilishimiz kerak bo'lgan muammolarni ham yuzaga keltiradi. Rivojlanish jarayonida o'rta chiqqan muammolarni yengish hamda musiqa madaniyati darslarini yanada sifatli tarzda o'tkazish maqsadida, yangi o'qitish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishni davom ettirish zarurdir. O'qituvchilarning texnologiyalardan foydalanish kasbiy tayyorgarlik mahoratini oshirish, samarali dars o'tish sharoitini yaratishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo musiqaga qiziqqan bolalarni dunyoqarashini yanada oshirish uchun san'at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar, ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchi yoshlarning qiziqishlarini o'stirib, bo'sh vaqtlarini behuda sariflamasliklari uchun chora tadbirlarni kuchaytirishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Yusupaliyeva, G.Xudoyberganova “ Madaniy-ma’rifiy muassasalarda ijodiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti ”. O’quv qo’llanma Toshkent 2021.
2. Davodov.M “ Rus pedagogig ensiklopediyasi “ Moskva 1998.
3. Nechayev. N “ uzluksiz ta’lim pedagogic tizim sifatida “ Moskva 1989.
4. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi . Inkluziv ta’lim konsepsiyasi. Toshkent 2022.
5. Thaut, M.Hrhyth, Music, and the Brain: Scientific Foundations and Clinical Applications. Routledge, 2005.
6. Bahadirov.N.Sh “ Orkestr sinfi “ Toshkent 2022.